



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI

Ismatullayeva Dilnavoz Shavkatullo qizi
Termiz Davlat Universiteti 4-kurs talabasi

dilnavosimatullaeva@gmail.com

Ergashova Iroda Yo'ldoshevna
Termiz Davlat Universiteti 4-kurs talabasi

ergashovairoda122@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqola boshlang'ich sinflarda bolalarga ingliztili tez oson o'qitishning samarali metodlari haqida atroflicha yoritilgan. Ushbu maqolada bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish usullari bilan tanishishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ingliz tili, bolalar, o'rgatish, qiziqarli, qo'shiq, harakatlar, tushuntirish, tez va oson, yosh bolalar, aqliy, jismoniy, o'qituvchi, ovozlar.

Boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflarida o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida 2-sinfdan boshlab esa alifbo, o'qish, yozish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi.

Hozirgi kunda davr talabi bo'lgan ingliz tilini yosh avlodgama maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflardan o'rgatib borishning turli xil usullari va yo'llari haqida ko'plab metodlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tadbiq etish masalalari ustida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Bunday izlanishlar samarasi o'z natijasini ko'rsatishi tayin. Yosh avlodgaularning bolalik chog'laridanoq chet tillaridan saboq berishning ko'plab afzalliklari mavjud. Ular bolalik chog'laridanoq tilga mehr qo'yishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otishimiz eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki ular chet tilini o'rganishi mobaynida o'sha xalqning nafaqat tili, balki millati, qadriyatlari va aholisining yashash tarzi bilan ham tanishib boradi. O'z-o'zidan o'quvchi ongida dunyo haqida tushuncha va taassurotlar paydo bo'la boshlaydi. Til bilish ko'plab keng imkoniyatlar yaratadi. Dunyo kechishga, biznesga, ilm olishga, dunyoqarashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, albatta. Chet tillari maktab o'quvchilariga ya'ni, boshlang'ich sinf o'quvchilariga bosqichma – bosqich o'rgatilishi yo'lga qo'yilgan. Bu jarayonda 1-sinf o'quvchilariga o'zlariga mos tarzda, asosan, multimedial va og'zaki o'rgatish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. 1-sinf o'quvchilarida o'zlarining ona tilisi haqida to'lliq.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik



hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatkichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chettillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab keyinchalik institutlarda, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganadilar. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Ingliz tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar o'zlashtiradilar.

Bundan tashqari, Yevropa mamlakatlarida o'quvchilarning migratsiyasi tez tez sodir bo'ladi va ular ingliz tili muhitida ma'lum vaqt yashash imkoniyatiga ega. Shularni nazarda tutadigan bo'lsak, ushbu konsepsiyani Yevropadan uzoqda joylashgan va madaniy jihatdan farq qiladigan mamlakatlarda targ'ib qilish maqsadga muvofiq emas. Ingliz tilini muloqot vositasi sifatida o'rganish dunyoning hamma joyida barcha kishilar uchun ham bir xil ma'no kasb eta olmasligi, shu bilan birga, ta'lim usullarini shunchaki oson yo'l bilan «eksport» qilish mushkul ekanligi isbotlangan. Chunki, birinchidan, ingliz tili sohibi bilan kommunikatsiya va interaksiyaga kirishishga ehtiyoj va imkoniyat mavjud bo'lmasa-da, tildan amaliy foydalanishni o'rgatish, ya'ni faqat «kundalik nutq vaziyati» va «kundalik turmush mavzusi» ustida ish olib borish maqsadga muvofiq emas. Ikkinchidan, ingliz tili faqat bir mamlakatning, ya'ni Buyuk Britaniyaning emas, balki Amerika Qo'shma Shtatlari, Avstraliya, Kanada va boshqa qator mamlakatlarning ham davlat tili hisoblanadi. Davlat tili ingliz tili bo'lgan ushbu mamlakatlarda esa madaniyatlar farqlidir.

«Language Awareness» – konsepsiyasi «Holistic approach» nomi bilan ham ataladi va u ingliz tilini yangi bilimlarni egallash vositasi sifatida o'zlashtirilishi lozimligini targ'ib etadi. Ya'ni boshlang'ich ingliz tili ta'limining maqsadingiz tili vositasida hayot haqidagi yangi bilimlarni o'zlashtirishdir. Lekin M. Williams va R. Bednar Vigotskiyning nutq rivojlanish ontogenezi haqidagi nazariyasini «Holistic approach» deb nomlashni ma'qul ko'rishgan.

Ularning taxminicha, Vigotskiy o'rganilishi lozim bo'lgan bilimni kichik qismlarga ajratib, malakava ko'nikmalar sifatida taqdim etish fikrini ma'qullamagan bo'lardi. Sababi Vigotskiy har qanday o'rganiladigan qismning asosini mazmun tashkil etishi lozimligini uqtiradi. Ushbu xulosa ta'sirida Yevropa mamlakatlari, Qo'shma Shtatlar va ingliz tili ikkinchi davlat tili bo'lgan mamlakatlarda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi ommalashmoqda. O'zbekistonda «Humanity» (Shaxsga yo'naltirilgan) konsepsiyasi qabul qilingan va unga muvofiq boshlang'ich ingliz tili ta'limida o'quvchiga ta'lim jarayoni va



madaniyatlararo kommunikatsiya (muloqot)ning markaziysub'yekti maqomi beriladi, uning qiziqish va ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Ingliz tilida nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional tajribasini boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida (PQ-1875-son) IXalq so'zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.

2. J. Jalolov. -ingliz tilini o'qitish metodlaril -O'qituvchil nashiryoti Toshkent To'xtasinova, N. R. Q., & Soibjonova, M. T. O. Q. (2022).

3. TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida). Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(4), 141-146.

4. Тухтасинова, Н. Р. (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori.

5. Turdaliyeva G.N "Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" // 2020.

6. Bekmuratova U.B "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" // Toshkent 2012.

7. Toliboboeva, S. J. (2020). TEACHING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN ENGLISH. Science and Education, (Special Issue).